

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Navoiy viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 oktyabr holatiga 969,8 ming kishini tashkil etib, 2017 yilning yanvar-oktyabr oylarida 15,4 ming kishiga yoki 1,6 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 471,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,6 %), qishloq aholisi soni 498,4 ming kishini (51,4 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2018 yil yanvar-sentyabr

- Aholi soni **15,4 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **15,9 ming nafarni** tashkil etdi.
- **3,1 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **6,3 mingta nikoh** va **0,7 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Navoiy viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-sentyabr oylarida)

**Tirik tug'ilganlar
15,9 ming bola**

Tabiiy
o'sish
12,5
ming kishi

Vafot etganlar
3,1 ming kishi


Aholining
umumiyo'sishi
1,2
ming kishi

**Ko'chib kelganlar
9,8 ming kishi**

Mexanik
o'sish
(kamayish)
-1,2
ming kishi


Ko'chib ketganlar
11,0 ming kishi

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 oktyabr holatiga, ming kishi)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktyabr holatiga eng ko'p aholi soni Xatirchi tumanida 194,4 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 20,0 %ni) va Qiziltepa tumanida 148,5 ming kishini (15,3 %), aksincha eng kam aholi soni Tomdi tumanida 14,4 ming kishi (1,4 %) va Konimex tumanida 30,0 ming kishini (3,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Xatirchi tumanida 1,7 %ni, Qiziltepa tumanida 1,4 %ni, Karmana tumanida 2,6%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Navoiy shaxrida 1,6 %ni va Konimex tumanida 1,0 %ni, tashkil etdi.



Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 15,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,1 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega ko'paygan (2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 21,7 promille bo'lган).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Tomdi (13,6 promilledan 15,0 promillega) va Xatirchi (23,1 promilledan 23,7 promillega), Konimex (21,7 promilledan 21,8 promillega), Navbaxor (21,2 promilledan 21,8 promillega) tumanlarida sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Karmana (23,1 promilledan 21,9) Uchquduq (24,8 promilledan 24,0 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



Qizbolalar:
7,6
ming nafar

O'g'il bolalar:
8,4
ming nafar

Aholining tabiiy harakati 2018 yil yanvar-sentyabrdagi

| | Tug'ilganlar | | |
|------------------------|--------------|---------|------------------|
| | 2017 y. | 2018 y. | O'sish sur'ati % |
| Navoiy viloyati | 15425 | 15942 | 103,4 |
| Navoiy sh. | 2025 | 2169 | 107,1 |
| Zarafshon sh. | 1302 | 1327 | 101,9 |
| Konimex | 480 | 486 | 101,2 |
| Qiziltepa | 2200 | 2348 | 106,7 |
| Navbahor | 1707 | 1784 | 104,5 |
| Karmana | 2097 | 2047 | 97,6 |
| Nurota | 1504 | 1540 | 102,4 |
| Tomdi | 147 | 161 | 109,5 |
| Uchquduq | 678 | 663 | 97,8 |
| Xatirchi | 3285 | 3417 | 104,0 |

Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 3,1 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan -0,4 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 4,7 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan birgina Zarafson shaxrida (3,5 promilledan 3,8 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Navoiy (5,1 promilledan 4,9 promillega) Konimex (7,3 promilledan 4,4 promillega), Navbaxor (4,6 promilledan 3,9 promillega) Karmana (5,3 promilledan 4,6 promillega) va Nurota (5,3 promilledan 4,8 promillega) viloyatlarida kuzatildi.

Vafot etganlar



Erkaklar: 1,7 ming kishi **Ayollar:** 1,4 ming kishi

Aholining tabiiy harakati 2018 yil yanvar-sentyabrdagi surʼati


| | O'lganlar | | |
|------------------------|-----------|---------|------------------|
| | 2017 y. | 2018 y. | O'sish sur'ati % |
| Navoiy viloyati | 3309 | 3068 | 92,7 |
| Navoiy sh. | 512 | 495 | 96,7 |
| Zarafshon sh. | 212 | 233 | 109,9 |
| Konimex | 161 | 99 | 61,5 |
| Qiziltepa | 459 | 448 | 97,6 |
| Navbahor | 373 | 318 | 85,3 |
| Karmana | 478 | 430 | 90,0 |
| Nurota | 349 | 325 | 93,1 |
| Tomdi | 46 | 44 | 95,7 |
| Uchquduq | 127 | 104 | 81,9 |
| Xatirchi | 592 | 572 | 96,6 |

Demografik holat

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,7 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,2 %i o'simtalardan, 8,2 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,1 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 2,0 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,6 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 67,0 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 6,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 18,8 %i tug'ma anomaliyalardan, 0,9 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan va 7,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 12,5 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 11,8 ming kishini ko'rsatmoqda.



Tabiiy o'sish:
12,5 ming kishi

Demografik holat

Nikoh. 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 6,3 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koefitsiyenti 8,8 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Tomdi (114,3 %), Navbaxor (107,2%), Nurota(106,2%), Uchquduq (104,5%) tumalariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,7 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Tomdi(175,0%), Nurota(106,0 %), Xatirchi(102,5%), va Uchquduq tumanlariga (100,0 %) to'g'ri kelmoqda.



Aholining tabiiy harakati 2018 yil yanvar-sentyabrdagi sur'atlari



| | Tuzilgan nikohlar | | | Nikohdan ajralishlar | | |
|------------------------|-------------------|---------|------------------|----------------------|---------|------------------|
| | 2017 y. | 2018 y. | O'sish sur'ati % | 2017 y. | 2018 y. | O'sish sur'ati % |
| Navoiy viloyati | 6463 | 6329 | 97,9 | 852 | 741 | 87,0 |
| Navoiy sh. | 959 | 916 | 95,5 | 219 | 195 | 89,0 |
| Zarafshon sh. | 437 | 437 | 100 | 104 | 76 | 73,1 |
| Konimex | 164 | 153 | 93,3 | 23 | 19 | 82,6 |
| Qiziltepa | 1032 | 911 | 88,3 | 101 | 86 | 85,1 |
| Navbahor | 768 | 823 | 107,2 | 83 | 61 | 73,5 |
| Karmana | 910 | 850 | 93,4 | 121 | 95 | 78,5 |
| Nurota | 565 | 600 | 106,2 | 33 | 35 | 106,0 |
| Tomdi | 42 | 48 | 114,3 | 4 | 7 | 175,0 |
| Uchquduq | 224 | 234 | 104,5 | 43 | 43 | 100,0 |
| Xatirchi | 1362 | 1357 | 99,6 | 121 | 124 | 102,5 |


Migratsiya. 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 9,8 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 11,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,2 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 0,8 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

| | 2017 yil yanvar- sentyabr | 2018 yil yanvar- sentyabr |
|---------------------------|---------------------------------|---------------------------------|
| Ko'chib kelganlar | 10,2 | 9,8 |
| Ko'chib ketganlar | 11,0 | 11,0 |
| Migratsiya saldosi | -0,8 | -1,2 |


Migratsiya saldosining yuqori darajasi Navoiy shaxrida (minus 1,3 ming kishi qayd etildi).

Doimiy aholi sonida qishloq va shaxar joylardagi aholi ulushi (2018 yil 1 oktyabr holatiga, foizda)




Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktyabr holatiga aholining ehg ko'p shaxar joylardagi ulushu Uchquduq tumanida 86,7 foizni, va Nurota tumanida 59,7 foizni, aksincha eng kam aholi soni Navbahor tumanida 14,5 foizni, va Xatirchi tumanida 22,9 foizni tashkil etdi.

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktyabr holatiga aholining ehg ko'p qishloq joylardagi ulushu Navbahor tumanida 85,5 foizni, va Xatirchi tumanida 77,1 foizni, aksincha eng kam aholi soni Nurota tumanida 40,6 foizni, va Uchquduq tumanida 13,3 foizni tashkil etdi.



Aholining tabiiy harakati 2018 yil yanvar-sentyabrda


| | kishi | | | har 1000 kishiga | |
|----------------------|--------------|-----------------------|---------------------|------------------|-----------------------|
| | 2017 y. | 2018 y. ¹⁾ | o'sish, kamayish | 2017 y. | 2018 y. ¹⁾ |
| Tug'ilganlar | 15425 | 15942 | 517 | 21.7 | 22.1 |
| O'lganlar | 3309 | 3068 | -241 | 4.7 | 4.3 |
| Tabiiy o'sish | 11797 | 12487 | 690 | 17.1 | 17.9 |
| Nikohlar | 6463 | 6329 | -134 | 9.1 | 8.8 |
| Ajralishlar | 852 | 741 | -111 | 1.2 | 1.0 |



Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktyabr holatiga tug'ilish darajasi viloyatning Karmana (23.1 dan 21.9 promilliga), Uchquduq (24,8 dan 24,0 promilliga), tumanlarida kamaygani kuzatildi.

O'lganlar sonining ko'payishi Zarafshon shahrida (3,5 dan 3,8 promilliga), ko'paygani kuzatildi.

Viloyat bo'yicha tuzilgan nikohlar hama ajralganlar soni (kishida)



Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktyabr holatiga tuzilgan nikohlar yuqori bolgan tumanlar Xatirchi tumanida 1357 ta, Navoiy shaxrida 916 ta, Karmana tumanida 850 ta, Qiziltepa tumanida 911 ta, aksincha eng kam tuzilgan nikohlar bo'yicha Konimex tumanida 153 ta, va Tomdi tumanida 48 tani tashkil etdi.

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktyabr holatiga ajralishlar yuqori bolgan tumanlar Navoiy shaxrida 195 ta, Xatirchi tumani da 124 ta, Karmana tumanida 95 ta, Qiziltepa tumanida 86 ta, aksincha eng kam ajralishlar bo'yicha Konimex tumanida 19 ta, va Tomdi tumanida 7 tani tashkil etdi.